



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA BOZORINI RIVOJLANTIRISH
VA TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
BUYRUG‘I**

_____ 19 _____-son
“ 19 ” mart 2025 yil

**Davlat xaridlariga oid hujjatni va Xarid komissiyasi tarkibini
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ts 311048337-034:2025 “**Tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olishni tashkil qilish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi reglament**” (keyingi o‘rinlarda — Reglament) tashkilot standarti tasdiqlansin va amalga kiritilsin.
2. Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligining **Xarid komissiyasi** tarkibi ushbu buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.
3. Xarid komissiyasi tomonidan xaridlarning Reglamentga qat‘iy rioya etilgan holda tashkil etilishi va o‘tkazilishi ta‘minlasin.
4. Davlat xaridlari doirasida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga Direktor yordamchisi D. Rustamov mas‘ul etib tayinlansin.
5. Xaridlarga tegishli shartnoma imzolangandan so‘ng, yetkazib berilayotgan tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilib olishga shaxsan tashabbuskor tarkibiy tuzilma mas‘ul hisoblanib, bunda, tashabbuskor tarkibiy tuzilma tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilishni rad etgan taqdirda, bu to‘g‘risida zudlik bilan Direktor yordamchisi D. Rustamovga (qabul qilishni asoslantirilgan rad etish dalolatnomasini ilova qilgan holda) xabardor etilishi ta‘minlasin.
6. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishning qonuniyligini ta‘minlash Xarid komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.
7. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor

 **Sh. Xodjayev**

Energetika bozorini rivojlantirish
va tartibga solish agentligining
2025-yil 19-mart dagi
19-son buyrug'iga
ilova

**Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligining
Xarid komissiyasi tarkibi**

№	Familiyasi, ismi, sharifi	Lavozimi
1.	Otaboyev Abdullajon Oybek o'g'li	Direktor o'rinbosari, komissiya rahbari
2	Maxatova Gulnora Abdullayevna	Bosh buxgalter, komissiya rahbarining o'rinbosari
3	Aminov Nosirjon Xasanbayevich	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha bosh mutaxassis, komissiya a'zosi
4.	Ernazarov Alim Kadirovich	Bosh yuriskonsult, komissiya a'zosi
5.	Ergashxo'jayev Akbarxo'ja Ulug'xo'ja o'g'li	Moliyaviy va iqtisodiy tahlil bo'limi bosh mutaxassisi, komissiya a'zosi
6.	Rustamov Davron Dostonovich	Direktor yordamchisi, komissiya kotibi

Izoh: komissiya a'zolari boshqa ishga utgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi